

AKUSTIK-MNESTIK AFAZIYAGA LINGVISTIK YONDASHUV

Akbarova Zuhro Akmaljanovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fargʻona davlat universiteti

Ziyoidinova Durdona Tursunali qizi

Fargʻona davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Maqola afaziya - bosh miyaning nutqqa javob beruvchi markazlari zararlanishi oqibatida nutqning qisman yoki butunlay yoʻqolishi, uning oʻrganilish tarixini yoritadi. Nutq yetishmovchiligining akustik-mnestik turi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar va bartaraf etishdagi lingvistik terapiya usullari haqida atroflicha soʻz boradi.*

***Annotation.** The article describes in detail the history of aphasia - partial or complete loss of speech due to damage to the speech-responsive centers of the brain. The acoustic-mnestic type of speech deficiency, its causes, and linguistic therapy methods for its elimination are discussed.*

***Аннотация.** В статье подробно описана история афазии – частичной или полной потери речи вследствие поражения речевых центров головного мозга. Обсуждается акустико-мнестический тип речевого дефицита, его причины и лингвистические терапевтические методы его устранения.*

***Kalit soʻzlar:** Afaziya, Brok, Vernike, Luriya, akustik-mnestik afaziya, lingvistik terapiya.*

Kirish. Bosh miyaning muayyan qismlari shikastlanishi agrafiya, afaziya, apraksiya va demensiya kabi bir qator kasalliklarga olib keladi. Sanab oʻtilganlardan farqli oʻlaroq, afaziyaga inson nutqi bilan bogʻliq yetishmovchilik sifatida qaraladi. Afaziya koʻpincha insultdan keyin, yoki nutqqa javob beruvchi miya chap yarimshari jarohatlanishi oqibatida toʻsatdan paydo boʻladi. Bundan tashqari, demantia (kognitiv fikrlashning pasayishi), miya oʻsimtasi, infeksiya va miya shishi kabi holatlar sekinlik bilan nutq buzilishiga olib keladi.

Asosiy qism. Soʻnggi yillarda tilshunoslikda ham nutq, miya va tilni oʻrganish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar orasida afaziya va uning kelib chiqishi, turlari hamda miyaning nutqqa javob beruvchi markazlarida sodir boʻladigan buzilishlar toʻgʻrisidagi tadqiqotlar va tajribalarining soni ortib borayotganligini koʻrish mumkin.

Afaziya boʻyicha qilingan ishlar, amalga oshirilgan tadqiqotlar, bilimlar ming yillarni qamrab olgan evolutsiya mahsulidir. Nutq va til buzilishining boshqa

turlarini farqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabablar va asosiy tabiati haqidagi g'oyalar sekinlik bilan rivojlangan. Eramizdan avvalgi II-I asrlarda qadimgi rim va yunon tabiblari falajlik, miya jarohati va yana bir qancha sabablar nutq yoki ovozning buzilishiga olib kelishi mumkinligini aniqlagan. Yevropada Uyg'onish davri tibbiyoti "tilning falajligi" tufayli nutq buzilishi va nutq buzilishining amneziya turi o'rtasidagi farqni aniq belgilashga muvaffaq bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib fransuz jarrohi Pol Brok miya chap yarimsharida nutq apparati faoliyati va nutq hosil qilishni ta'minlovchi muhim markaz mavjud degan xulosaga keldi. Oradan ko'p o'tmay, nemis nevrologi Karl Vernike esa Brokdan farqli ravishda nutqni tushunishda boshqa bir miya sohasi muhim rol o'ynashini aniqladi. Oxirgi ikki kashfiyot afaziologiyaning keyingi davrlarda jadal o'rganilishi va tadqiq usullarining keng ishlab chiqilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

O'tgan asrning 2-yarmigacha afaziyani o'rganish nevrolog, psixolog, fiziolog olimlar tomonidan amalga oshirilib, bu masala yuzasidan lingvistlarga kamdan kam hollarda murojaat qilingan. Bostonda olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, Chomskiy tomonidan ilgari surilgan - til tuzilishini lingvistik tushunchalarga tayanib tahlil qilish va o'rganish g'oyasi tilshunoslikda afaziya bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilishiga turtki bo'ldi. Izlanishlar afaziya inson nutqiga qanday ta'sir qilishini aniqlash uchun tilning ichki qoidalari, tamoyillari hamda uning tuzilishini o'rganish muhimligini taqazo etdi. Buning oqibatida, afaziya uch xil: sotiologvistik, neyrolingvistik va psixolingvistik yondashuv asosida o'rganildi.

Sotiologvistlar afaziyani ikki katta turga ajratadi: ravon (fluent) va ravon bo'lmagan (nonfluent) 1. Dastlabki turi kuzatilgan bemorlarda miyaning Vernike qismi bilan bog'liq muammo mavjud bo'lib, ular kommunikatsiya jarayonida ravon gapiradi, lekin ularga qaratilgan nutqni tushunish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Vernike afaziyasi bor odam nutqidagi xato va kamchiliklarni sezmagani uchfun keraksiz so'z va jummalarni ko'p qo'llaydi. Bu esa ularni tushunishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchi toifaga kiruvchi bemorda buning aksi kuzatilib, u nutqni yaxshi tushunadi, ammo muloqot jarayonida faol ishtirok eta olmaydi. Ayrim holatlarda esa katta qiyinchilik bilan qisqa gapiradi. Xususan, yuklama, bog'lovchi va gapga asosiy ma'no beruvchi gap bo'laklari tushib qolishi mumkin. Afaziyaning ushbu turi miyaning Broka qismiga ziyon yetganda yuzaga keladi.

Afaziologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar bevosita zamonaviy nevropsixologiya asoschisi Aleksandr Luriya (1902-1977) nomi bilan bog'liq bo'lib, u afaziya turlariga quyidagicha ta'rif beradi : "Ularning uchtasi nutqni tushunish bilan bog'liq bo'lgan sensor (sezish) tipga hamda nutqni ishlab chiqarish uchun

¹ Annamaria Györfi. Linguistic approaches to aphasia. The 5th International Virtual Conference on Advanced Scientific Results June, 26. - 30. 2017, www.scieconf.com

mas'ul bo'lgan motor (harakat) turiga tegishli. Ushbu afaziya ko'rinishlarining har biri tilning funksional tizmining muayyan tarkibiy qismlarining buzilishiga aloqador"¹.

Afaziyaning eshitish va og'zaki xotira buzilishidan kelib chiquvchi – akustik-mnestik turi ilk bor professor Luriya tomonidan tadqiq etilgan. Ayrim manbalarda “sensor-mnestik afaziya” deb ham yuritilib, chakka sohasining o'rta va orqa qismlari shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. U nutqiy xotiraning pasayishi - eshitish jarayonining yuqori darajadagi tormozlanishdan paydo bo'ladi, ya'ni miya qabul qilayotgan har bir so'zni idrok qilishda oldingi so'zni unutib qo'yadi.

Eshituv-nutqiy xotiraning buzilishi afaziyaning boshqa turlarida ham uchraydi, ammo leksik xotiraning yetishmovchiligi akustik-mnestik afaziyaning asosiy xususiyati sanaladi. Tovushlarni farqlash, nutq apparatining artikulyatsion funksiyalari saqlangani uchun bunday bemorlar muloqot jarayonida ancha faol bo'ladi.

Bemorlarda ma'lumotlarni eslab qola olmaslik, miyaning tormozlanishi nisbatan murakkab 5-7 so'zdan iborat gaplarni idrok etishda muammoga sabab bo'ladi. Shaxs yoki predmet nomlarini unutib qo'yilishi esa nutqdagi konkretlikni yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, murakkab nutqiy vaziyatlarda, ma'ruza, dars jarayoni yoki radio eshitganda tez toliqish holati kuzatiladi.

Afaziyaning ko'pincha katta yoshdagilar aziyat chekadi. Chunki uning paydo bo'lishi aksariyat hollarda insult bilan bog'liq. Quyida akustik-mnestik afaziyaning keltirib chiqaruvchi sabablari bilan tanishamiz:

Insult. Insult - nutq buzilishining asosiy omillaridan biri. Statistika ko'ra, insult bilan og'riq bemorlarning 30-60 foizida afaziya kuzatiladi. Ishemik insultda miya qon bilan ta'minlanmaganligi va miya yarim korteksining qon bilan siqilish holati akustik-mnestik afaziya olib keladi.

Taravmatik miya shikastlanishi. Bu holat miya to'qimalarining ezilishi, eshituv-nutq xotirasi uchun mas'ul bo'lgan neyronlarning shikastlanishi va hatto o'limga ham olib keladi. TMShdan keyingi nutq buzilishi boshqa omillarga juda o'xshash bo'lsa-da, TMSh bor bemorlarda pragmatik til buzilish ehtimoli ko'proq. Pragmatika esa ijtimoiy muloqotga ishora qiladi. Afaziya zararining holati va darajasiga qarab qisqa yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Miya o'simtasi. O'simtaning til markazlariga ta'sir etishi afaziyaning keltirib chiqaradi. Saraton tufayli paydo bo'lgan afaziya – neoplastik afaziya deb ham ataladi. Miya zararlanishining bu ko'rinishi insult kabi keng tarqalgan bo'lmasa-da, miya o'simtasi bor bemorlarning 30-50 foizi afaziyaning boshida o'tkazadi. O'simta katta bo'lgani sari miyani qon bilan ta'minlovchi tomirlar siqiladi. Bu esa bevosita

¹Юрий Владимирович Микадзе. Вклад А.Р. Лурии в изучение мозговой организации языка.2020. 6-sahifa

temporal lobga ta'sir o'tkazadi. Temporal lob eshitishni qayta ishlash, tilni tushunish va xotira funksiyalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Miyaning bu markazida shish paydo bo'lganda, eshitish orqali qabul qilgan informatsiyani tushunish va saqlash uchun javobgar neyronlar faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Infeksiya va yallig'lanish. Miya infeksiyasi afaziyani paydo bo'lishida insult hamda tramvatik shikastlanish singari faol turtki bo'lmasa-da, unga nutq buzilishini keltirib chiqaruvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Miyaning til markazlariga ta'sir etadigan har qanday infeksiya afaziyani qo'zg'atishi mumkin. Miya infeksiyasi immunitet zaiflashgan odamlarda ko'p uchraydi, aksariyat hollarda, keksa yoshdagilar va bolalar bu guruhni tashkil qiladi. Ensefalit - miya to'qimalarining yallig'lanishi, nutq uchun mas'ul bo'lgan neyronlarning disfunktsiyasiga olib keladi. Natijada, nutqda afaziyaning turli xil ko'rinishlari, jumladan, akustik-mnestik alomatlar namoyon bo'la boshlaydi.

Yevropa adabiyotlarida akustik-mnestik afaziyani "o'tkazuvchi afaziya", "transkortikal motor afaziya" deb ham atashadi¹. Og'zaki yoki yozma tilning ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanuvchi akustik-mnestika afaziya barcha bemorlar uchun umumiy simptomlarga ega bo'lib, narzlarni nomlash funksiyasining ko'proq yoki kamroq darajada buzilishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari quyidagi simptomlar kuzatiladi:

Tilni tushunmaslik: og'zaki so'z, jumlar yoki yozma matnni idrok eta olmaslik;

O'qish va yozishdagi qiyinchiliklar: yozma materialni o'qish va tushunishdagi qiyinchilik. Og'ir holatlarda yozishga ham ta'sir etishi mumkin;

So'zni tanib olishning buzilishi: oldindan ma'lum bo'lgan so'zni tanib olish va aniqlashdagi qiyinchilik;

So'zni qidirish bilan bog'liq muammolar: vaziyatga mos so'zlarni topish va ifodalashda to'siqqa uchrash. Bu holat nutqni pauzalanishga sabab bo'ladi;

Leksik boylikning chegaralanishi: muloqot jarayonida so'zni to'g'ri qo'llash hamda eslab qolish qobiliyatining pasayishi;

Semantik parafaziya: kontekstda bir so'zni boshqa bir mos bo'lmagan sinonimi bilan almashtira olmaslik.

Ushbu simptomlar kuzatilayotgan bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish, ularni vaqtida davolash muhim. O'rta asrlarda, jumladan, XV asrgacha tabiblar afaziyani xotira buzilishining bir shakli sifatida qabul qilib, butunlay bo'lmasa-da, qisman davolashdagi asosiy usullarni yaratishgan. XVIII asrda Gall, Borka, Bastian, Jekson kabi olimlar nutqni asl holiga qaytarishda ishlab chiqilgan terapiyalar to'g'ri tanlansa, afaziyani to'laligicha bartaraf qilish mumkin degan fikrni ilgari surdi. Ular

¹ Zarifboy Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent -2019 .180-sahifa

tomonidan realibitatsion ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqishi aniq ilmiy tamoyillarni shakllantirish imkoniyatini berdi. Keyingi davrlarda E.Froshels, Luriya, Goldshteyn, afaziya terapiyasining otasi bo'lgan Hermen Gutzmann birinchi tizimli davolash usullari ishlab chiqadi.

Akustik-mnestik afaziya uchun lingvistik terapiya usullari odatda afaziya turlarini diagnos qilgan mutaxassis lagoped tomonidan belgilanadi. Lingvistik terapiya quyidagi usullarga asoslanishi mumkin:

So'z va gap terapiyasi: bemorning so'z va gaplarni identifikatsiya qilish, ularni takrorlash va qo'llash jarayonini o'rganish;

So'z va jummalarni semantik xususiyati bilan ishlash: so'z va gap ma'nosiga e'tibor qilish, ularni qo'llash va ishlatish jarayonini o'rganish;

Fikr va nutqni uyg'unlashtirish: akustik-mnestik afaziyali bemor o'qish va yozish jarayonlarini rivojlantirish uchun nutqning eng muhim aspektlari e'tibor qaratishi;

Ko'z xotirasi bilan ishlash: so'z va gaplarni tushuntirish uchun qoralama yoki rasmi terapiyani qo'llash. Bu usul bemorda ko'rish orqali o'rganish jarayonini osonlashtiradi;

Auditoriya bilan ishlash: terapiya nafaqat afaziyaning bu turi uchun, balki boshqa holatlarida ham realibitatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Lingvistik terapiya jarayonlari mutaxassis lagoped tomonidan afaziyasi bor inson holatiga moslashtiriladi. Terapevtlar muolajaning aksariyat qismini bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan hamda jamoaviy holatda muloqot qilishni o'rganadigan bemorlar guruhi asosida shakllantiradi. Davolanish mobaynida bemorning yaqinlari va do'stlari katta rol o'ynaydi. Ulardan mutaxassis bilan kelishgan holda, o'z yaqini bilan muloqot qilish usullarini o'rganishi va g'amxo'rlik qilishi talab etiladi, chunki afziya tufayli bemor ruhiyatida jamiyat uchun ortiqchalik hissi paydo bo'lmasligi kerak.

Xulosa. Afaziya – temporal lobning ma'lum darajada zararlanishi oqibatida og'zaki yoki yozma nutqqa ta'sir o'tkazuvchi orttirilgan til buzilishi. Afaziya faqat og'zaki nutq qobig'iga ta'sir o'tkazadi, kognitiv fikrlashga zarar yetkazmaydi. Akustik-mnestik turidagi insonlarda muloqot jarayonida ko'p energiya sarflashi hisobiga charchoq va depressiya holatlari tez-tez kuzatiladi. Bu esa bemorning kundalik hayoti va jamiyatdagi ishtirokiga salbiy ta'sir qiladi. Ayni paytda afaziya holatini imkon qadar tez fursatda bartaraf etish uchun nevrolog, lagoped, fiziologlar bilan bir qatorda, lingvistlar tomonidan ham maxsus diagnostik teslar ishlab chiqish yo'lga qo'yilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Annamaria Györfi. Linguistic approaches to aphasia. The 5th International Virtual Conference on Advanced Scientific Results June, 26. - 30. 2017, www.scieconf.com

2. Chris Code University of Exeter. A short history of the past and future of aphasia therapy. October 2008.

3. Internatiol Institute on Deafness and Other Communication Disorders. Article October 2008

4. Юрий Владимирович Микадзе. Вклад А. Р. Лурии в изучение мозговой организации языка 2019.

5. М. Ауурова . Lagopediya. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. Toshkent 2007.

6. Методы Нейропсихологической Диагностики. Л. И. Вассерман 102-sahifa

7. Sabrina Roberta, Oliveira Fontanesi Interventions in aphasia: an integrative review.

8. Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Toshkent 2009.